



## ABU ABDULLOH XORAZMIYNING “MIFTAH UL-ULUM” ASARIDA FANLAR TASNIFI

Safarov Maqsudali Kamol o‘g‘li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

falsafa kafedrasi katta o‘qituvchisi

+998903472311

### ANNOTATSIYA

*Ilmiy qadriyatlarning inson va jamiyatning ma’naviy kamolotidagi ahamiyati masalalari Abu Abdulloh Xorazmiy, Muso al Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino va boshqa mutafakkirlarining asarlarida muhim o‘rin tutgan. Ular ilmiy qadriyatlarning avlodlar va zamonalarni bir-biri bilan bog‘lovchi xalqa, insonni axloqan poklovchi va ezgulikka da’vat etuvchi muhim vosita sifatida tavsiflanganlar.*

**Kalit so‘zlar.** Abu Abdulloh Xorazmiy, Mafotih al-ulum, nazariy falsafa, fiqh, kalom, amaliy falsafa.

### ABSTRACT

*The importance of scientific values in the spiritual development of man and society was emphasized in the works of Abu Abdullah Al-Khwarizmi, Musa Al-Khwarizmi, Ahmad Ferghani, Abu Nasr Al-Farabi, Abu Rayhan Al-Biruni, Ibn Sina and other thinkers. They described scientific values as a link connecting generations and times, an important means of moral purification of man and calling for virtue.*

**Keywords.** Abu Abdullah Al-Khwarizmi, Mafatih al-ulum, theoretical philosophy, jurisprudence, theology, practical philosophy.

### KIRISH

Buyuk mutafakkir Al-Xorazmiy e’tirof etganidek: “O‘tmish davrlarda o‘tgan olimlar fanning turli tarmoqlari sohasida asarlar yozish bilan o‘zlaridan keyingi keladiganlarni nazarda tutardilar. Ulardan biri uni o‘zidan keyin keluvchilarga meros qoldiradilar, boshqasi o‘zidan avvalgilarning asarlarini sharhlaydi, bu bilan qiyinchiliklarni osonlashtiradi... o‘zidan avvalgilar haqida yaxshi fikrda bo‘ladi, takabburlik qilmaydi va o‘zi qilgan ishidan mag‘rurlanmaydi”[1;59].

Ma’lumki milodning IX—XI asrlari Sharqda dunyoviy va islom ilmlarini chuqur o‘rganib, ularni rivojlantirgan va fanlarni tasniflashda munosib hissa qo‘sghan olimlardan biri Abu Abdulloh al-Xorazmiydir.

Abu Abdulloh Xorazmiyning bizgacha yetib kelgan, ko‘pchilik asarlari singari o‘sha davrning ilm tili – arab tilida bitilgan, yagona ma’lum asari – “Mafotih al-ulum” (“Ilmlar kalitlari”)dir. Asarning qo‘lyozma nusxalari juda ko‘p emas. Yaqin-yaqingacha uning to‘rt nusxasi bor deb hisoblanib kelinar edi. Ana shu to‘rt nusxadan uchtasi Buyuk Britaniya muzeyida hamda Berlin kutubxonasida saqlanadi. XX asrning 60-yillarida ushbu asarning yana olti nusxasi Istanbul kutubxonalarida borligi aniqladi. Barcha olti nusxa Istanbul shahridagi kutubxonalardadir.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

“Mafotih al-ulum” (“Ilmlar kalitlari”) o‘ziga xos qomusiy asar bo‘lib, o‘sha davrdagi deyarli hamma asosiy fan sohalarini o‘z ichiga qamrab olgan. Muallif o‘rta asrlardagi har bir ilm mazmunini sharhlash yo‘li orqali tushuntirib beradi.

Abu Abdulloh Xorazmiy ilmlar tasnifining shakli quyidagicha:

Shariat va u bilan bog‘liq ilmlar:

1. Fiqh, ya’ni musulmon huquqshunosligi.
2. Kalom, ya’ni din asoslari.
3. Grammatika.
4. Ish yurgizish.
5. She’riyat va aruz.
6. Tarix.

Boshqa ilmlar:

1. Nazariy falsafa:

a) tabiiy ilmlar – tibbiyot (tib, samoviy hodisalar – meteorologiya, mineralogiya, al-kimyo, mexanika) – quyi; b) riyoziyot ilmlari (arifmetika, handasa, ilm an-nujum, musiqa) – o‘rtancha; v) ilohiy, ya’ni metafizika – oliv ilm; g) mantiq.

2. Amaliy falsafa:

a) axloq – etika (odamni boshqarish); b) uyshunoslik (uyni boshqarish); v) siyosat (shaharni, mamlakatni boshqarish).

“Mafotih al-ulum” da ilmlar tasnifi har bir fanning mohiyatini aniqlash hamda ularning asosiy atamalarini qisqa va aniq bayon etish bilan birgalikda olib boriladi. Bu yerda Abu Abdulloh Xorazmiy o‘z tasnifida o‘sha davr an’anasi, ya’ni ilmlarni ikkiga bo‘lishni qo‘llab-quvvatlab, an’anaviy (shar’iy) va an’anaviy bo‘lmagan (falsafiy) ilmlarga ajratadi.

An’anaviy ilmlar. Shu ilmlardan biri, fiqhda muallif islom qonunshunosligining asosi bo‘lgan va islom huquqi posbonining doimiy dasturi Qur’on, payg‘ambar so‘zlari, hikmatli gaplari va hayotlarini aks ettiruvchi Sunnat, Hadis va uning xillari; Ijmo – islom jamoasining yakdillik bilan tan olgan qarori; shariat qonun-qoidalariga

amal qilishni, ya’ni tahorat qilish, namoz o‘qish, azon aytish, ro‘za tutish, zakot to‘lash ustida to‘xtab o‘tadi.

Ikkinchi bo‘lim kalomda o‘sha davrda Yaqin va O‘rtta Sharqda mavjud bo‘lgan ko‘pgina mazhablar haqida ma’lumotlar berilgan. Xususan, bu mazhablarning yettiga bo‘lib bayon etilishi, ayniqsa, mu’taziliylar haqidagi mukammal tafsilotlar muhim ahamiyatga egadir. Shu bilan birga, grek-xristian mazhablari, islomgacha bo‘lgan davrdagi eron va Yamandagi diniy e’tiqodlar, Hindistonda tarqalgan ba’zi dualistik mazhablar va oqimlar hamda zardushtiylik bayon etiladi. Bu ma’lumotlar Yaqin va O‘rtta Sharq hamda Markaziy Osiyodagi xalqlarning dinlari tarixini o‘rganishda g‘oyat katta ahamiyatga egadir.

Arab adabiy tili grammatikasi, uning qonun-qoidalari grammatika bo‘limida bayon etilgan. Ayni paytda, muallif arab she’riyati va uning tarkibiy qismlaridan bo‘lgan aruz ustida ham mufassal to‘xtalib o‘tgan.

Ish yurgizish bo‘limi davlat devoni, soliq turlari va olinishi, soliq yig‘uvchilarning vazifalari, askarlar ro‘yxati, ularning kiyim-kechagi va to‘lanadigan maoshlari, irrigatsiya shahobchalarida foydalaniladigan atamalar, kanal xillari, suv uskunalari, ikki daryo (Sirdaryo va Amudaryo) oralig‘idagi sug‘orish tizimlari haqidagi ma’lumotlarni yoritib berishi bilan muhimdir.

Asarning tarix bo‘limida afsonaviy podshohlardan boshlab, tartib bilan turli davr va mamlakatlar maliklari, Umaviylar va Abbosiylar xalifaligi, islomgacha bo‘lgan davrdagi Yaman tarixi, Rum va Yunon tarixi haqida mufassal ma’lumotlar keltirilgan. O‘rtta asrlarda odamlar jamoasini tabaqlarga bo‘linishi ham shu bo‘limda zikr etiladi.

An’anaviy bo‘lmagan ilmlar. Bu ilmlar qatorida birinchi bo‘lib falsafa qayd etilib, unda ushbu ilm atamalarining sharhi bilan bir qatorda ilmlar tasnifi masalasi yoritilgan.

Arastuning mantiqqa oid kitoblari sharhi Xorazmiy asarining mantiq bo‘limida o‘z aksini topadi. Unda muallif Yaqin va O‘rtta Sharq hamda Markaziy Osiyodagi ushbu ilm haqidagi ma’lumotlar, oldinga surilgan ajoyib g‘oyalardan foydalanib, ularni yanada boyitdi.

Asarning tabiiy ilmlarga oid bo‘limlari o‘rta asr Sharqida ilmiy yuksalish darajasini o‘rganish nuqtai nazaridan nihoyatda ma’lumotlarga boydir. Tibga oid bo‘limda kasalliklar, sodda va murakkab dorilar haqidagi ma’lumotlar keltirilgan. Ushbu bo‘limda o‘sha davr tabobatida ma’lum bo‘lgan va keng tarqalgan mijoz hamda qon tomiri urishiga qarab kasallikni aniqlash to‘g‘risidagi nodir tavsiflar berilgan.

Kimyo bo‘limida ham Xorazmiy o‘rta asr Sharqidagi kimyoviy bilimlar haqida nihoyatda qimmatli ma’lumotlarni keltiradiki, ular Sharqda tabiiy fanlar rivojini o‘rganishda muhim ahamiyatga egadir.

Riyoziyot bo‘limida o‘rta asr Sharqidagi matematik ilmlar holati bayon etiladi. Xorazmiy matematik tushunchani aqlning ixtiyoriy ijodi emas, balki ob’ektiv olamning ma’lum tomonlari, predmetlar munosabatlarining in’ikosi deb talqin etadi.

Muallif Forobiy g‘oyalarini davom ettirib, arifmetikani ikkiga: nazariy va amaliyga ajratadi. U kub sonlar bilan bir qatorda shakliy sonlarni ko‘rib chiqish bilan nazariy arifmetikaning ba’zi bir tomonlarini boyitdi. Handasa ham nazariy va amaliy qismlarga bo‘linadi, bu esa o‘sha davrda uning boshqa riyoziyot ilmlari kabi yuqori darajada rivojlanganligidan dalolat beradi. Astronomiya bo‘limida uning vazifasi bilan birga tarixiga oid masalalar ham ko‘rib o‘tiladi.

Umuman, asarda Abu Abdulloh Xorazmiy o‘z davri tabiiy va riyoziyot ilmlarini yaxshi bilganligi, ularni nazariy falsafaga kiritish bilan bir tomondan, ularning ahamiyatini oshirish va ta’kidlash, ikkinchi tomondan, falsafani boyitishga intilganligi o‘z ifodasini topgan. Xorazmiyning “Mafotih al–ulum” asari o‘rta asr madaniyati va ma’naviyatini o‘rganishda muhim ahamiyatga egadir.

Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan ulug‘ mutafakkirlar e’tiqod dalillari bilan aql dalillarini o‘zaro muvofiqlashtirishga, keng ommani dunyoviy va diniy ilmlarni puxta egallahsga, olam sirlarini bilihsga da’vat etganlar.

Islom olamida erishilgan ilmiy yutuqlarni hozirgacha xorij va mintaqamiz olimlari yuksak darajada baholaydilar. O‘sha davrlarda islomni qabul qilgan davlatlarning ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-ma’rifiy hayotida mislsiz o‘zgarishlar yuz berdi. Ya’ni ularning davlat boshqaruv tizimi hamda ma’naviy-madaniy hayotida ma’lum yutuqlarga erishildi. Bu davrning muhim xususiyatlaridan biri sifatida, musulmon olimlarining ilmiy-falsafiy bilimlar rivojiga qo‘sghan hissasini belgilash mumkin. Shuningdek, bu davrda fanlarning o‘ziga xos tasnifi ishlab chiqildi. Keyinchalik esa Andalusiya orqali islom madaniyati G‘arb ma’naviy-madaniy hayotiga katta ta’sir ko‘rsatib, bu hududda ilmiy muassasalar, universitetlarning tashkil etilishiga olib keldi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA NATIJALAR

Islom falsafasi shakllanishini va rivojlanish bosqichlarini tadqiq qilgan ko‘plab G‘arb olimlari uni islom falsafasi, arab-islom falsafasi, musulmon falsafasi, yoki arab falsafasi sifatida tilga oladilar[2;78]. Lekin bizning fikrimizcha, masalaga bunday yondoshish nisbiy ahamiyatga ega. Chunki, o‘rta asrlar musulmon Sharqi madaniyati va falsafasini yaratuvchilar qatorida arablardan tashqari fors, yahudiy, turk, tojik, o‘zbek, ozarbayjon ya’ni arab xalifaligidagi barcha xalqlarning vakillari

ishtirok etganlar. Biroq u davrdagi aksariyat ilmiy-falsafiy bilimlar xalqaro til hisoblangan arab tilida yozilgani sababli aksariyat G‘arb olimlari tomonidan o‘rtaslar Sharq xalqlari falsafasini – arab falsafasi sifatida talqin qilinishiga asos bo‘lib xizmat qildi.

Professor O.Fayzullaev fikricha, “Umumiy global falsafadan tashqari, musulmon Sharqida bizning hududimizda Sharq falsafasi – kalom falsafasi, islam falsafasi, tasavvuf falsafasi vujudga keldi”. Bizningcha, kalom va tasavvuf islam falsafasining tarkibiy qismlari sifatida qaralsa to‘g‘ri bo‘ladi. Islom falsafasi esa xalqimiz falsafasining moziydagি tarixidir. Shu o‘rinda tasavvufga doir yana bir faktga e’tibor qaratish muhim deb hisoblaymiz. “G‘arb, ha-ha demasang, hatto tasavvuf ta’limotining ildizlarini ham Qadimgi Yunon falsafasi, ayniqsa, neoplatonizmga va xristianlik e’tiqodiga olib borib taqashga intiladi. Chunki, sir emas, tasavvuf ta’limotining sir-sinoatlari, undagi yuksak ruhiy-ma’naviy uruj, aql-idrokklarni o‘ziga maftun va mahliyo etadigan falsafa yuz yillardan buyon jahon ahlini hayratga solib kelmoqda. Holbuki, ushbu mangulikka daxldor ta’limotning islam tafakkurining Xizr chashmasidan balqib chiqqanligi hech kimga sir emas. Shunday ekan, unga “Ota”, “Ona” va “Bola” qidirishning hech qanday hojati yo‘q. “Taxayyul, tasavvur, tafakkur”ning “Abadiy qaytish yoxud Sharq falsafasi Nitshe talqinida” nomli qismida Narzulla Jo‘raev aynan ana shu masalalar – Sharq va G‘arb tamaddunlari o‘rtasidagi dialoglar, Nitshening “Avesto” kitobi, Qadimgi Sharq diniy-falsafiy tafakkuriga bo‘lgan munosabati haqida mulohaza yuritar ekan, “Nitshe qadimgi Sharq g‘oyalarini qanchalik chuqur o‘zlashtirgan bo‘lsa, bu g‘oyani u o‘ziga xos tarzda shunchalik rivojlantirdi, uning yangidan-yangi qirralarini ochdi. Yevropada abadiy qaytish g‘oyasini o‘ziga xos tarzda rivojlantirdi”, degan xulosaga keladi.

Tarixda ham, bugun ham jahon miqyosida muhim o‘rin tutuvchi falsafiy ta’limotlar O‘rtas asr musulmon Sharqida yaratilganini ta’kidlab o‘tish joizki, bunda asosan al-Xorazmiy, al-Kindiy, al-Farg‘oniy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino va boshqa O‘rtas Osiyolik olimlar muhim vazifani bajarganlar. Ular tomonidan ilgari surilgan g‘oyalarga tayanib, Yevropa falsafasi uyg‘ondi va uyg‘onish davri falsafasi vujudga keldi. Masalaga oydinlik kiritish maqsadida islam falsafasi tarixini ko‘zdan kechirishni maqsadga muvofiq hisoblaymiz: VIII asrda Yaqin va O‘rtas Sharqda turli musulmon mazhablari mavjud bo‘lib, ularning har biri o‘zining haqligiga da’vo qilardi. Ular o‘zaro keskin kurash olib bordilar. O‘scha davr olimlari ijodida ta’limotlari bir-biridan juda kam farq qiladigan bu mazhablar haqidagi ma’lumotlarni uchratish mumkin. O‘rtas asrlar fanlar tasnifi bo‘yicha chuqur izlanish olib borgan olim R. Bahodirov o‘z tadqiqtida Kalomda yahudiy va yunon-xristian sektalari,

zardushtiylik haqidagi ma'lumotlar borligi haqida ma'lumot beradi. Bu Markaziy Osiyoda islom va xristianlik bilan birga yahudiylilik, buddaviylik, zardushtiylik ham keng tarqalganidan dalolat beradi. Jamiat g'oyaviy hayotining xarakterli xususiyatlarini Abu Homid G'azzoliy quyidagicha belgilaydi: “Kishilarning diniy e'tiqodiy farqlanishi, shuningdek bir diniy ta'limot ichida bo'linishning ko'pligi farqlar va usullardagi ziddiyatning oqibati bo'lib, har bir guruh o'z ta'limotidan o'ta mammun” [3;14].

Abu Homid G'azzoliy ularning maqsadlarini quyidagicha izohlaydi: “Har bir guruh, firqa o'ziga tegishli ilmni o'rghanishni farzi ayn deb qabul qilgan. Mutakallimlar, kalom ilmi farzi ayn, zero, u bilan tawhid, Allohning zoti va sifatlari o'rGANILADI, deydilar. Fuqaholar fiqh ilmini farzi ayn bilishadi. Zero, fiqh bilan ibodatlar, haromu halol va boshqa muammolardagi harom-halol ham bilinadi, deydilar. Mufassir va muhaddislar esa, barcha ilmlarning asosi bo'lgan Qur'on va sunnat ilmini farzi ayn sanashadi. Mutasavviflar, farzi ayn tasavvuf ilmi, deb da'vo qilishadi” [4;38]. Farzi aynning ma'nosini Abu Homid G'azzoliy“farz amalning kayfiyati haqidagi ilmni egallash demakdir” deb tushuntiradi[5;41]. Abu Homid G'azzoliy o'z davrining asosiy g'oyaviy – nazariy oqimlarini (asosiy haqiqat izlovchilar kategoriysi) kalom, batiniylar, falsafa, sufiylarga bo'lgan.

Musulmonlar turli xil odat va an'analarga ega xalqlar bilan murakkab bir munosabatlarga kirisharkan, bu xalqlarning islomga kirishi bir qancha muammolarlarni yuzaga keltirdi. Natijada ular nafaqat o'z dinlarining boshqa dinlardan afzalligini nazariy jihatdan ko'rsatib qolmay, shu bilan birga o'zlarining eng yaxshi sifatlarini namoyon qilishlari, islomni qabul qilgan, biroq turli an'ana va tarixiy madaniyatga ega xalklarda tug'ilajak ko'plab savollarga javob topishlari lozim edi[6;21]. “Kalom ilmi” asosini tashkil etgan shu omildan kelib chiqib, islomning hakligi to'g'risida paydo bo'lgan masalalarga javob beruvchi nazariya ishlab chiqishdan tashqari, hukumat va xalq orasidagi muxolifiy munosabatlarni nazariy jihatdan ajrim qilish zarurati paydo bo'lgan edi. Muhammad Sayyid Xotamiy: “Garchand kalom ilmining alomatlari Muhammad (SAV) vafotidan so'ng darhol ko'ringan bo'lsa-da, ammo uning fan sifatidagi shakllanishi ma'lum ma'noda aqliy (ratsional) ta'limotni ishlab chiqqan mu'tazaliylar tufayli yuzaga kelgan edi”[7;49], - deydi. Demak, mu'taziliylar kalomda dastlab paydo bo'lgan yo'nalish bo'lib, bunday fikrni boshqa tadqiqotchilar, jumladan F.Rouzental[8;372] da ham uchratish mumkin.

Kalomning keyingi rivojida ko'rindiki, bu yo'nalish tarfdorlari orasida aql va inson irodasini inkor e'tuvchi olimlar mutakallimlar paydo bo'ldi. Mutakallimlar bahs mavzusini tashkil etgan asosiy masalalar: tabiat va Allohning sifatlari, payg'ambarlar, mazhablar va mu'taziliylik batafsil o'rGANILADI. R. Baxodirovning

yozishicha: “Kalomdagi turli xristian sektalari, islomgacha bo‘lgan diniy ta’limotlar (Fors, Yaman, Hind, dualistik konsepsiylar) haqidagi ma’lumotlar qadrlidir”[9;123].

Abbosiylar xalifaligining dastlabki bosqichida islom dunyosi tijorat va sanoat taraqqiyoti nuqtai nazaridan boshqa hamma mamlakatlardan ilgarilab ketgan bo‘lsada, bir tomonda boylik va imtiyozlarni egallab olgan yuqori tabaqa, ikkinchi tomonda ko‘pchilikni tashkil etuvchi doimiy qashshoqlik va mahrumliklardan azob chekayotgan quyi tabaqa paydo bo‘ldi. Bu omil ham mazhablar o‘rtasidagi ziddiyatni chuqurlashtirar, hokimiyatga qarshi harakatlarning kuchayishiga sharoit yaratardi. Mana shunday vaziyatda umidsiz va norozi odamlarning bir qismi dunyoviy hayotni inkor etish, uzlatga chekinib yashash va zohidlikni ixtiyor etadigan bo‘ldilar.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Muhammad Sayyid Xotamiy “Islom tafakkuri tarixidan” nomli asarida “Ilxod” va “zandaqa” (dahriylik va kofirlik) tushunchalarini bu davrning asosiy xususiyatlari sifatida tilga olib, buni bir tomondan kalom ilmidagi babs-munozaralar, ikkinchi tomonidan, hokimlarning islom ahkomlari, aqoidlaridan chekinishlari natijasi sifatida baholaydi. Darhaqiqat oliy tabaqa vakillari dunyoviy hokimiyat tepasida turib, diniy martabalarga da’vogarlik qilardilar. Ma’lumki, din e’tiqod va faoliyat asosi bo‘lgan jamiyatda uning tashkil etuvchisi va tartibga keltiruvchisi shariat hisoblanadi. Shariat siyosiy hokimiyat manbai bo‘lgan joyda xalifa diniy qoidalarga qarshi ish tutishi mumkin emas. Hukmron tartibning qonuniyligiga shubhalar paydo bo‘lishi tabiiy ravishda din asoslariga tegib o’tmasdan kolmas edi. Bu esa diniy mazhablar va idora qiluvchilar orasida ba’zan qonli to‘qnashuvlarga sabab bo‘luvchi tortishuvlar, kelishmovchiliklarga mavzu bo‘lardi. Bunda ikki tomon ham dinka tayanishga intilar, din nomidan bir-biriga tashlanardilar.

Shunday qilib, shariat diniy hayotning tashqi tomonini belgilab keladi, “fiqh” esa, o‘z navbatida, shariatning norma va chegaralarini belgilab beradi. Bundan ma’lum bo‘ladiki, islomning ilmiy va ma’rifiy doiralarida shariat haqidagi ilm dastlabki shakllangan shoxobcha bo‘ldi. Hadisshunoslik, tarix, adabiyot kabi shoxobchalar esa ko‘p hollarda shariat va “fiqh”ga ilova tariqasida edi. Ularning hammasi keyinchalik “kalom2 degan ilm ostida birlashib, yaxlit holda namoyon bo‘ldilar. Shuningdek, “Fiqh va kalom bilan birga avj olib rivojlangan boshqa bir hodisa - bu tasavvuf edi”[10;22]. Tasavvuf ziddiyatlar, yakka hukmron mustabidlarning zulmidan azob chekkan odamlarning isyoni ifodasi edi. Bunga Ibn Xaldunning quyidagi fikri asos bo‘ladi: “ U(Tasavvuf) din bag‘rida paydo bo‘lgan shariat ta’limotlaridan biridir. Birinchi musulmonlar, hurmatli sahobalar va tobiinlar orasida paydo bo‘lgan so‘fiylarning yo‘li keyinchalik ham taqvo va Xaq yo‘li deb hisoblangan. Darhaqiqat, bu so‘z (“so‘fiy” so‘zi) “ibodatga g‘ark, bo‘lgan, Xudo



hamma narsadan kechish, Xudoga xizmat etish maqsadida xilvatda o‘tirish, dunyoviy zebu ziynatdan qaytish, nafsoniy hirsu havas, boshqalar intilgan boylik, mansab, shuhratni tark etishni” anglatib keladi.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)**

1. Муҳаммад Мусо ал-Хоразмий. Танланган асарлар.- Т.:Фан, 1983, -59 бет
2. Ibragim Taufic. Classical islamic philosophy. M. Publisher. 1990.
3. Фролова. Е. А.История средневековой арабо-исламской философии. М. 1995. Sharif M.M. History of Muslim Philosofhy. T.2. Wiesbaden. 1963.
4. Бахадиров Р.М.Из истории классификации наук на средневековом мусульманском Востоке. — Т.: Академия, 2000. -244 б.
5. Абу Ҳомид Муҳаммад ал-Газзолий. Ихёу улумид-дин. – Б.512.
6. Хотамий Саййид Мухаммад. Ислом тафаккури тарихидан. – Т.: Минхож, 2003. -288 б. – Б.234.
7. Роузентал Ф. Торжество знания: концепция знания в средневековом исламе. – М.: Наука, 1978. -372 с.